

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA CHET TILLARNI O'RGANISH BUGUNGI KUNNING  
MUHIM TALABI**

**Ismatova Munavvar Yunusovna**

*Qiziltepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.*

**Nasullayeva Madina Toxirovna**

*Qiziltepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi ingliz tili o'qituvchisi.*

**Qambarova Azima Botirovna**

*Qiziltepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi ingliz tili o'qituvchisi*

Bugungi kunda butun dunyoni o'zining aql-u tafakkuri, kuch-g'ayrati bilan lol qoldirayotgan o'zbek farzandlarini ko'rganda buning barchasi mustaqil va obod Vatanimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi hamda kelajagiga berilayotgan e'tiborning mahsuli deya e'tirof etish also xato bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, har tomonlama rivojlanib borayotgan mamlakatimiz bugun o'zi belgilab olgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning uchinchi bosqichini amalga oshirmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ushbu islohotlar yigit-qizlarimizni jamiyat, davlat, oila, oldida o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

"Barchamizga ma'lumki, ta'lim va tarbiya so'zlari doimo birga tilga olinadi, ularni bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Ular bir-birini to'ldiruvchi pedagogik jarayonlar bo'lib, shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni murakkab pedagogik jarayon sifatida har bir dars soati mobaynida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishni talab etadi. Qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar, o'tilayotgan mavzu o'quvchilarning shaxs sifatida, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi uchun muayyan maqsad, mazmun va mohiyatni o'zida qamrab olgan bo'lishi darkor. Shu o'rinda bugungi kunda ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishga berilayotgan e'tibor hamda o'quvchilarning chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishiga urg'u bergan holda aytishimiz mumkinki, chet tillarni o'qitishda ham ta'lim va tarbiyaning birligiga amal qilish barkamol avlodni shakllantirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Chet tili o'qitishning tarbiyaviy maqsadi qisqacha shunday ta'riflanadi: o'quvchilarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berish, ularda aqliy mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. Bu borada quyidagi usul va vositalardan foydalanish o'rinlidir".

O'quvchilarni milliy va ma'naviy meroslarimizdan foydalangan holda o'quv jarayoniga yo'naltirish. O'quvchilarni sinfdan tashqari mashg'ulotlar, chet tili to'garakalar bilan band qilish va ularni ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida olib borish. Tarbiya vositalari hisoblangan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni, uchrashuvlarni chet tillarida tashkillashtirish. Chet tillarini o'qitishda tarbiyaning axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy kabi barcha turlariga hamda mehnat tarbiyasiga e'tibor berish. O'quv jarayonida tarbiyaning stimullashtiruvchi metodlaridan foydalanish.

“Chet tillarini sinf dars tizimida o’qitishda o’rgatilayotgan chet tili adabiyotiga oid, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan vositalardan keng miqyosda foydalanish. O’quvchilarda umuminsoniy fazilatlarini shakllantirish maqsadida turli ta’lim va tarbiyaning manjud bo’lgan samarali usullarini qo’llash, shuningdek, yangi, zamonaviy va samarali metod, usul va vositalarni kashf etib ularni o’quv jarayonida amalda qo’llash. Ushbu jarayonda ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini kengaytirish. O’quvchilar orasida peer-studyingni tadbiq etish va boshqalar. Barchamizga ma’lumki, insoniyat hayotiga ta’sir ko’rsatuvchi eng muhim omillardan biri badiiy adabiyotdi. Chet tili darslarida o’qituvchining badiiy adabiyot materiallaridan foydalanishi o’quvchilarning ta’lim va tarbiyasi uchun ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’qituvchi bu borada materiallarning o’quvchilar yosh xususiyatlariga, o’tilayotgan mavzuga, zamon va makonga mosligiga e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir”.

Xalq og’zaki na’munalari bo’lgan maqollar, ertaklar, hikmatli so’zlar, topishmoq va tez aytishlarni dars davomida qo’llash nafaqat o’quvchilarning chet tillarni o’zlashtirishga bo’lgan ishtiyoqini oshiribgina qolmay, ularning tinglab tushunish, o’qib tahlil qilish, eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishga, tarjima mahoratini oshirish hamda xotirasini mustahkamlashda ham o’zining samarasini namoyon etadi. Shuningdek, yuqoridagi vositalar o’quvchilarda azal-azaldan insoniyat uchun umumiy bo’lib kelgan Vatanni sevish va unga sodiq bo’lish, bag’rikenglik, insoniylik, ota-onani hurmat qilish, adolatli bo’lish kabi fazilatlarining shakllanishiga ko’maklashadi.

“Davlat ta’lim standartlari o’quvchi va talabalarning chet tillar bo’yicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab beradi, o’quv reja va dasturlar, darsliklar, qo’llanmalarni ishlab chiqishda asos bo’lib xizmat qiladi. Chet tillar bo’yicha davlat ta’lim standartini ishlab chiqishda quyidagi me’yoriy va qonun hujjatlari asos qilib olindi:

- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Birlashgan millatlar tashkilotining bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyasi;
- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlari;
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to’g’risida” 1999-yil 16-avgustdagi 390-son va “O’rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to’g’risida” 2000-yil 16-oktabrdagi 400-son qarorlari;
- O`z DSt 1.0:1998. O’zbekiston Respublikasi davlat standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar;
- O`z DSt 1.1:1992. O’zbekiston standartlashtirish tizimi. Davlat standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro’yxatidan o’tkazish tartibi;
- O`z DSt 1.9:1995. O’zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro’yxatga olish tartibi;

“Ingliz tili nazariyasi (ingliz tili nazariy fonetikasi, ingliz tili nazariy grammatikasi, ingliz tili leksikologiyasi, ingliz tili stilistikasi, ingliz tili tarixi, tarjima nazariyasi,

mamlakatshunoslik, german filologiyasiga kirish). Ingliz tili o'qitish metodikasi (Ingliz tili o'qitish metodikasi tarixi, O'zbekistonda ingliz tili o'qitish tarixi, o'rta va oliy maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida chet til o'qitish metodikasi, qiyosiy metodika, maxsus metodika–mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi). Inglizabon mamlakatlar adabiyoti (Angliya adabiyoti, AQSH va boshqa inglizabon mamlakatlar adabiyoti, inglizabon adabiyotning o'zbek tiliga tarjimasi). Tilshunoslik (umumiy tilshunoslik, ingliz va ona tillari qiyosiy tipologiyasi, lingvistik tadqiqot asoslari).

Ilmiy-tadqiqot turlari: empirik, nazariy, empirik-nazariy tadqiqotlar. Ilmiy bilish shakllari: g'oya, dalil, gipoteza, ilmiy bashorat kabi manba va dabiyoatlardan iborat"<sup>1</sup>.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Ta'lim tizimida nafaqat tarbiya, ta'lim , balki uning xorijiy tillarni bilishlik darajasi ham muhim hisoblanmoqda. Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi kunda juda ko'plab davlatlar bilan ham ta'lim sohasida, ham iqtisod, umuman barcha sohalarda keng aloqalarni yo'lga qoymoqda. Shu sababdan xorijiy tillarni bilishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda

---

<sup>1</sup> Hoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2003.